

Xakim TO'XTAYEV, Mavlyuda YAKUBOVA
O'zbekiston milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakul'teti "Falsafa va mantiq"
kafedrası dotsentlari

АХБОРОТ ВА МАДАНИЙАТНИНГ ОРГАНИК СИНТЕЗИ

ОРГАНИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ ИНФОРМАЦИИ И КУЛЬТУРЫ

ORGANIC SYNTHESIS OF INFORMATION AND CULTURE

Annotasiya: Maqolada, axborot madaniyati tushunchasi mazmun mohiyati va axborot madaniyati umumiy madaniyatning bir qismi ekanligi, umuman madaniy faoliyatning eng muhim jihatlaridan biri sifatida tushunilishi kerakligi; axborot madaniyati turli yo'nalishlarda jumladan texnik – texnologik hamda ijtimoiy sohalarida amal qilishi, axborot madaniyatining ushbu jihatlari shaxsning rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatishi, texnik – texnologik yo'nalishda axborot madaniyati bu texnik axborot vositalari va ularni axborot olish, saqlash, qayta ishlash hamda olish uchun foydalanishning samarali uslublari haqidagi bilim ekanligi, o'rganilgan.

Tayanch iboralar: Axborot, madaniyat, axborot madaniyati, madaniyatni axborotlashuvi

Аннотация: В статье рассматривается сущность понятия информационной культуры, которую следует понимать, как часть общей культуры, а также важный аспект культурной деятельности. Информационная культура действует в различных направлениях, в частности в технико-технологической и социальной сферах, при этом ее аспекты оказывают различное влияние на развитие личности. Отмечается, что в технико-технологическом направлении информационная культура является знанием об эффективных способах получения информации из технических информационных средств, ее хранения, переработки и дальнейшего использования.

Ключевые слова: информация, культура, информационная культура, информатизация культуры

Annotation: The article examines the essence of the concept of information culture, which should be

understood as part of the general culture, as well as an important aspect of cultural activity. Information culture operates in different directions, in particular in the technical, technological and social spheres, while its aspects have a different impact on the development of the person. It is noted that in the technical and technological direction, information culture is the knowledge of effective ways to obtain information from technical information devices, its storage, processing and further use.

Key words: Information, culture, information culture, informatization of culture

KIRISH

Axborot madaniyati har bir madaniyat singari inson faoliyatining mahsulidir. Axborot sohasidek biron bir boshqa sohada inson aqlining ijodkorlik qobiliyati namoyon bo'lmaydi. Madaniyatning shakllanishi tufayli inson atrofdagi haqiqatni aks ettiradigan va shu bilan birga uning doirasidan tashqariga chiqadigan belgilar olamini yaratadi. Belgilar olami o'z aksini aynan insoniy xislat bo'lmish nutqda topib, "xabar bilan almashinuvni amalga oshirish uchun foydalaniladigan kodlarni belgilash maqsadida ishlatiladigan atamadir". [1.71] Inson evolyutsiyasida muhim rol o'ynagan nutq chinakam insoniy hodisadir. N.Viner yozganidek, "Insonning butun hayoti nutq atrofida jamlanadi...Nutq inson zavqini keltirib, uning eng buyuk topilmalaridan hisoblanadi....bu haqiqatan ham insoniy hodisadir".[1.82] Inson hayoti davomida madaniyatni shakllantirish muhimroq kasb etib, L.Memford yozishicha, "insonning aqli bilan shakllangan madaniyat sohasidagi yutuqlari, hozirgi tabiiy kuchlarni zabt etishdagi yutuqlaridan yoki uning tasavvur qiladigan barcha kosmik parvozlaridan cheksiz muhimroq bo'lib qolmoqda[2]

ASOSIY QISM

Madaniyat insoniyatning biologik mavjudot sifatida rivojlanishining vositasi va uning ijtimoiylashuvi va shaxsiyat rivojlanishining eng muhim vositasidir.

Axborot madaniyati turli yo'nalishlarda jumladan texnik – texnologik hamda ijtimoiy sohalarida amal qiladi. Axborot madaniyatining ushbu jihatlari shaxsning rivojlanishiga turlicha

ta'sir ko'rsatadi. Texnik – texnologik yo'nalishda axborot madaniyati bu texnik axborot vositalari va ularni axborot olish, saqlash, qayta ishlash hamda olish uchun foydalanishning samarali uslublari haqidagi bilimlardir. Bu tushunchada axborot madaniyati umumiy emas, balki shaxsning kasbiy madaniyatini belgilaydi. Sub'ekt texnologiya bilan ishlab ratsional harakatning bir turini ifodalaydi xolos. Texnologiyani shu ma'noda tushunib texnologik harakat jarayoni davomida inson o'z oldiga muayyan vazifalar qo'yadi va ratsional tarzda ya'ni bilimlar asosida maqsadlarga erishish uchun texnikadan foydalanadi. Demak, texnologiya ratsional bilimlar yordamida ratsional foydalanish bilan bog'liqdir. Bejiz emaski, bu ma'noda texnologiya "Ilmiy bilimlarni amallar uslubini aniqlash uchun ishlatish"[3] sifatida tushuniladi."

Axborot madaniyati, avvalo, umumiy madaniyatning bir qismi, umuman madaniy faoliyatning eng muhim jihatlaridan biri sifatida tushunilishi kerak. U butun madaniyatga xos xususiyatlarga ega: uning insonning ijtimoiy tabiati bilan uzviy aloqasi, inson faoliyati mahsuli, odamlarning tabiatga, jamiyatga va bir-biriga bo'lgan faol munosabati natijasidir. Axborot madaniyati insoniyat madaniy haqiqatni, yani o'zining ko'p asrlik tarixiy yo'li davomida jamg'argan barcha madaniy salohiyatini o'zlashtirishda zarur va samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, axborot madaniyati sohasini faqat kompyuterlashtirish yoki umuman axborot texnologiyalari sohasi bilan cheklab qo'ymaslik kerak. Darhaqiqat, bu soha ancha kengroq bo'lib, ilmiy faoliyat, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, kundalik hayot, bo'sh vaqt va boshqalarni qamrab oladi. Jamiyat axborotlashgani sari bu soha kengayadi, jarayon jamiyat rivojlanishi uchun ob'ektiv zarurat sifatida harakat qiladi. Demak, "madaniyatni axborotlashtirish, ya'ni barcha madaniy jarayonlarni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlash endi istak emas, balki ob'ektiv ichki tarixiy zaruratdir".[4]

Axborot madaniyati odatda madaniyat sohasi sifatida tushuniladi, bu avvalo jamiyatni axborotlashtirish faoliyati va shaxsning axborot fazilatlarini shakllantirish bilan bog'liq. Bir tomondan, bu odamga axborot makonida erkin

harakatlanish va axborot bilan o'zaro aloqani osonlashtirishga imkon beradigan ma'lum darajadagi bilimdir. Bu fikrlashning yangi turi bo'lib, u odamni muntazam axborotlar va intellektual ishlardan ozod qilish natijasida shakllanadi. Shu bilan birga, bu inson uchun axborot makonida erkin tanlash imkoniyatini yaratadigan yangi aloqa turi. Boshqa tomondan, axborot madaniyati - bu axborot faoliyati, axborotni qabul qilish, uzatish, saqlash va undan foydalanish sohasidagi inson hayotining sifat xususiyatidir. Bu esa axborot madaniyatini tahlil qilishning ikki jihatini ajratib ko'rsatish huquqini beradi.

Ijtimoiy-madaniy ma'noda axborot madaniyati axloqiy va milliy madaniyatlarning ijobiy o'zaro ta'sirini, ularning insoniyatning umumiy tajribasiga bog'lanishini ta'minlaydigan tamoyillar va real mexanizmlar to'plamidir. Ushbu jihatdan axborot madaniyati insoniyatning umumiy madaniyatining elementi, jahon madaniy hamjamiyatini shakllantirish, dunyo axborot makonini yaratishning eng muhim vositasidir. Bu muloqot rejimida shaxslarning shaxsiy ishtirokisiz aloqaning tubdan yangi shakllari, yani axborot aloqasi darajasini belgilaydi.

Texnik va texnologik ma'noda axborot madaniyati - ma'lumotlar, ma'lumotlarga ishlov berish va ularni manfaatdor iste'molchiga nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun taqdim etishning optimal usullari, axborot ishlab chiqarish, saqlash va uzatishning texnik vositalarini takomillashtirish mexanizmlari kasbiy madaniyatning ko'rsatkichidir.

Axborot madaniyati bu ma'lumotni olish, qayta ishlash, saqlash, berish va undan foydalanish usullari to'g'risidagi bilim, shuningdek, amaliy maqsadlarda foydalanish uchun ma'lumot bilan maqsadga muvofiq ravishda ishlash qobiliyatidir.

Axborot madaniyati belgisi bu nafaqat xilma-xil sifatli ma'lumotlarni olish, balki mavjud bo'lgan juda ko'p sonli ma'lumotlar orasidan eng muhim va kerakli narsalarni tanlash qobiliyatidir. Олим Е. Dayson ta'kidlashicha, "Jamiyatimizning murakkabliklari va raqamli asrning imkoniyatlari - shaxslarga tegishli talablarni qo'yadi. Axborot olamida odamlar nafaqat axborotning o'zi, balki uni qayta ishlash va talqin qilish qobiliyatiga ham

muhtoj. Iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi uchun ular yaxshi ma'lumotga, ega bo'lishi kerak." [5]

Shuni ta'kidlash kerakki, axborot madaniyati bugungi kunda ham asosan o'zining ijtimoiy-texnik jihatidan umumiy madaniyatning emas, balki kasbiy madaniyatning ko'rsatkichidir.

Axborot madaniyatini qo'llashning haqiqiy maydoni ancha keng, uning mazmuni juda boy. Axborot texnologiyalari insonning axborotni qabul qilish va uzatish texnik vositalari bilan amaliy aloqalarini ta'minlaydigan informatika, matematika va ingliz tili bilim sohalari bilan ishlash qobiliyatini ko'pincha birlashtiriladi. Ammo, axborot madaniyatini yanada kengroq ko'rib chiqib, shuni aytish kerakki, bilim va ko'nikmalarni aks ettirishning umumiy usullarini faqat kompyuter sharoitida izlash kerak emas.

Axborot madaniyati axborot faoliyati tizimni shakllantiruvchi yadroga ega. Axborot madaniyati insonning ijtimoiy tabiati bilan bog'liq. Bu insonning turli xil ijodiy qobiliyatlari mahsuli sifatida quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- texnik qurilmalardan foydalanishning o'ziga xosligi (telefonidan shaxsiy kompyutergacha va kompyuter tarmoqlariga qadar);
- turli xil manbalardan ma'lumot olish qobiliyatiga ega bo'lish va undan samarali foydalana olish;
- axborotni analitik qayta ishlash asoslariga ega bo'lish;
- o'z faoliyat sohasidagi axborot oqimlarining xususiyatlarini bilish.

Ushbu faoliyat jamiyatning axborot salohiyatining ishlashi va yanada rivojlanishini ta'minlaydi. Aynan axborot faoliyati jarayonida odamlar axborot bilan ishlash madaniyatini, olish, qayta ishlash, saqlash va o'z vaqtida berish usullarini yaxshilaydilar.

Axborotni o'z vaqtida berish bilan bog'liq so'nggi holat juda muhimdir. Ayniqsa, ilmfan, ishlab chiqarish, texnik taraqqiyot va ijtimoiy hayotning tezlashib borishi, jamiyatdagi ma'lumotlarni tez eskirishi, odamlarning bir-biri bilan aloqa qilish uslubini o'zgarishini aks ettiradi. Axborotni o'z vaqtida yetkazib berish uning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Axborot madaniyati uning amaliy ahamiyatini oshirish va odamlar yashash tarziga qarab turli xil shakllarda paydo bo'ladi - ilmiy, ishlab chiqarish, siyosiy, badiiy, ma'rifiy va boshqalar, bu esa o'z navbatida yanada bo'linishga ega. Bugungi kunda foydalanish jarayonida axborot madaniyatining to'rt turiga duch kelamiz. Ularning har biri ma'lumotni ishlatish uslubiga, axloqiy hatti-harakatlarga ta'sir qiladi va rahbarlarning muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun ma'lumotlardan foydalanishdagi ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi.

1. Funksional madaniyat. Bunda axborot asosan boshqalarga ta'sir o'tkazish uchun ishlatiladi. Ushbu madaniyat, asosan, ma'lumotlar va boshqaruv va boshqarish uchun xizmat qiladigan qat'iy ierarxik kompaniyalarga xosdir.

2. O'zaro aloqalar madaniyati. O'zaro munosabatlar madaniyatida menejerlar va mutaxassislar bir-biriga yetarlicha ishonadilar va shuning uchun jarayonlarni takomillashtirish va samaradorlikni oshirish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni almashishlari mumkin.

3. Tadqiqot madaniyati. Qidiruv madaniyatida menejerlar va xodimlar kelajakdagi tendentsiyalarni tushunishga va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi kurashishning eng yaxshi usulini topishga intilishadi. Bu yerda dominant axborot hatti-harakati bashorat qilishdir. Menejerlar va xodimlar kelajakni yaxshiroq tushunish va o'z faoliyatini qanday o'zgartirish va kelajakdagi tendentsiyalarga moslashish uchun ma'lumot qidiradilar.

4. Ochiqlik madaniyati. Bu yerda menejerlar va xodimlar inqirozlar va tub o'zgarishlarning mohiyatini yangi tushunishga ochiq, raqobat bardoshlikka o'tish yo'llarini qidiradilar. Ushbu kompaniyalar yangi bozorlar va sanoat tarmoqlarining raqobat manzarasini o'zgartirishi mumkin bo'lgan yangi mahsulotlar va xizmatlarni va'da qiladigan yangi istiqbol va g'oyalarni izlash uchun o'zlarini ozod qilish uchun ataylab eski biznes usullarini rad etishmoqda. Bunday kompaniya bir vaqtning o'zida dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisining an'anaviy ko'rinishini tubdan o'zgartirgan onlayn axborot, ko'ngilochar va video bozorlarida raqobatlashadigan Microsoft

korporatsiyasi hisoblanadi. Kompaniya nafaqat o'zgarishlarni kutadi yoki unga moslasha olmaydi, balki turli sohalardagi raqobat bazasini qayta shakllantiradi. Ko'pgina kompaniyalar ochiqlik madaniyati "zonalari" ga ega bo'lib, u yerda ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, yangi mahsulotlar va biznesni rivojlantirish senariylarini ishlab chiqish, iste'molchilar va yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish. Ammo hozircha Microsoft kabi innovatsion madaniyatni o'z strategiyasining ajralmas qismiga aylantirgan kompaniyalar sanoqli. [6.152]

XULOSA

Umumay olganda, axborot va madaniyat juda ko'p o'xshashliklarga ega bo'lgan ikkita hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu xususiyatlar, avvalambor, ularning inson hayotining eng xilma-xil shakllari bilan aloqalari mavjudligida ifodalanadigan globaligini, universalligini o'z ichiga olishi kerak. Axborot va madaniyat, go'yo inson faoliyatining turli usullariga kirib borib, unga ijodiy xarakter, maqsadni belgilash va hokazo kabi xarakterli xususiyatlarni beradi. Madaniy jarayonlar axborot jarayonlari orqali amalga oshiriladi va aksincha.

Shaxs jamiyatga faqat o'zi faoliyat ko'rsatayotgan mavjud muhit va madaniyat to'g'risida ma'lumot to'plashi va tarqatish mexanizmi orqali samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Madaniyatning asosiy mahsuloti - bu eksponatlar bo'lib, ular ham axboriy ahamiyatga ega. Va nihoyat, axborot va madaniyat ta'lim jarayonida organik birlikni tashkil etadi.

Axborot madaniyati - bu axborot va madaniyatning organik sintezi. Axborot va madaniyat o'zaro kesishgan ikkita soha sifatida ifodalanishi mumkin, uning zonasida axborot madaniyati deb belgilangan bo'shliq hosil bo'ladi. Bu esa odamlarning jamiyat va shaxs darajasidagi axborot bilan o'zaro munosabati madaniyatidir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Viner N. Chelovek upravlyayushiy. - SPb: - Piter - 2001
2. Mamford L. Mif mashini. Texnika i razvitie chelovechestva. - M: Logos. - 2001. - 54 str.
3. Bell D. Gryadushee postindustrial'noe obshestvo. Opit sosial'nogo prognozirovaniya. - M.: Academia - 1999. - 38 str.
4. Rakitov A.I. Noviy podxod k vzaimosvyazi istorii. Informasii i kul'turi: primer Rossii// Vopr. Filosofii - 1994. - № 4. - 28 str.
5. Shveyser A. Kul'tura i etika. - M: Progress. - 121 str.
6. Negodaev I.A. Informatizatsiya kul'turi - Rostov n/d, 2003. 152 str.